

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAIDOVA MUXAYYO UMEDILOYEVNA**

**INGLIZ BADIY DISKURSIDA KOGERENSIYA TA'MINOTIDA**  
**KOGEZIV VOSITALAR FUNKSIONALLIGI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)**

**Contents of the dissertation for a Doctor of Science degree (DSc)**

**Saidova Muxayyo Umediloyevna**

Ingliz badiiy diskursida kogereksiya ta'minotida kogeziv vositalar funksionalligi .....5

**Saidova Mukhayyo Umediloevna**

The Functionality of Cohesive Devices in Ensuring Coherence in English Literary Discourse.....35

**Саидова Мухайё Умедилоевна**

Функциональность когезивных средств в обеспечении когеренции в английском художественном дискурсе .....67

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....72

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc. 03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAIDOVA MUXAYYO UMEDILLOYEVNA**

**INGLIZ BADIY DISKURSIDA KOGERENSIYA TA'MINOTIDA**  
**KOGEZIV VOSITALAR FUNKSIONALLIGI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2025.2.DSc/Fil1003 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

|                            |   |
|----------------------------|---|
| <b>Ilmiy maslahatchi:</b>  | <b>Mirzayev Ibodullo Kamolovich</b><br>filologiya fanlari doktori, professor  |
| <b>Rasmiy opponentlar:</b> | <b>Xajiyeva Feruza Melsovna</b><br>filologiya fanlari doktori, professor<br><b>Nasrullayeva Nafisa Zafarovna</b><br>filologiya fanlari doktori, professor<br><b>Satimova Dilafruz Numonjonovna</b><br>filologiya fanlari doktori, dotsent |
| <b>Yetakchi tashkilot:</b> | <b>Jizzax davlat pedagogika universiteti</b>  |

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "20" iyun soat 9<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro sh., M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (925 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "5" iyun kuni tarqatildi.  
(2026-yil "5" iyun da 26-74 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



*Dobromir*

*DA*

**D.I.Xodjayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**O.O.Bobokalonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori, dotsent

**O.M.Fayzulloyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori [DSc] dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida diskursiv, pragmatik, kognitiv nazariyalar yuzaga kelib, diskurs tahlil obyekti sifatida shakllanib, uning lingvopragmatik va lingvokognitiv xususiyatlari masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Badiiy diskursning kogeziy, kogerent, intensionallik, qabul qiluvchanlik, informativlilik, situativlik va intertekstuallik kabi xususiyatlarga ega ekanligi uning tugal linguvistik birlik sifatida tarkib topishida ishtirok etayotgan lisoniy hodisalarning tub mohiyatini teran tushunish imkonini beradi. Bu esa badiiy diskursda kogeziya va kogerensiyaning funksional-diskursiv mohiyatini, kontekstual-pragmatik xususiyatlarini ochib berish, kognitiv-konseptual asoslarini aniqlash va ilmiy tavsiflashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida so'nggi yillarda kogeziya va kogerensiyaning diskurs doirasida namoyon bo'ladigan grammatik-leksik turlari va ularning xususiyatlari, kontekstual-pragmatik kategoriyalari, konseptual-kognitiv manzarasi, kommunikativ qoliplari asosida keng o'rganilishi va tadqiq qilinishi ustuvor vazifaga aylanmoqda. Mazkur lisoniy hodisalarning badiiy diskursda namoyon bo'lishi, ularning ichki mantiqiy tuzilishini ifodalashda, lisoniy materialning diskursiv misollar hisobidan boyitilishi, kognitiv-pragmatik tahlil paradigmasining ta'sirida oldindan ishlab chiqilgan lingvistik tavsif turlari tamoman yangi ko'rinish kasb etishi, o'z navbatida, lingvistik tadqiqotlar doirasini kengaytirishga va yangi xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Mustaqillik milliy tilshunoslikni jahondagi ilg'or mezonlar asosida rivojlantirish uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratishi bilan birga, ushbu mezonlarga ko'p asrlik milliy mentalitetimiz asosida munosabat bildirish mas'uliyatini ham yuklaydi. Mazkur dissertatsiya natijalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida belgilangan "xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish"<sup>1</sup> vazifasining ijrosini ta'minlashda idrokiy-kognitiv model, pragmatik-diskursiv mexanizm va modellar yuzasidan olib borilgan qiyosiy tadqiqotlar muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030"

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni//PF-5847-son, 8.10.2019. URL: [lex.uz/docs/4545884](http://lex.uz/docs/4545884)

strategiyasi to'g'risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.** Ingliz badiiy diskursida kogerensiya ta'minotida kogezi vositalar funkcionalligini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Oxford University Language Centre, London Metropolitan University, Norwich Institute for Language Education (Buyuk Britaniya); University of Harvard, University of South Caroline, University of Texas (AQSH); Universitat Bonn (Germaniya); University of Oslo (Norvegiya); University of Vienna (Avstriya); Vrije Universiteit Amsterdam (Niderlandiya); Stroudsburg Association of Computational Linguistics (Frantsiya); Sofia University (Bolgariya); Dublin City University (Irlandiya); University of Toronto (Kanada); Shanghai Foreign Languages University (Xitoy); English and Foreign Languages University (India); Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti (RF); shuningdek, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Buxoro davlat universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligida badiiy diskursida kogerensiya ta'minotida kogezi vositalar funkcionalligini o'rganish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: grammatik va leksik birliklar orqali kogerensiyaning ta'minlanishi, pragmatik yondashuv asosida kogezi vositalarning funkcionallik imkoniyatlarini o'rganish, kognitiv tilshunoslik doirasida diskurs elementlari o'rtasidagi semantik bog'liqlikni tahlil qilish, kogezi vositalarning madaniy va uslubiy xususiyatlarini adabiy matnlar doirasida o'rganish, madaniy kontekstlar kogerensiyaning shakllantirishdagi roli.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida matn va diskurs tahliliga bo'lgan e'tibor ortib, xususan, kogerensiya va kogeziyaning o'zaro aloqasi, ularni ta'minlovchi vositalarning turli lingvistik yondashuvlar – funkcionallik, pragmatik, kognitiv yondashuvlar asosida keng tadqiq etilgan.

Xususan, M.A.K.Halliday va R.Hasan ning *Cohesion in English*<sup>2</sup> asari asosiy nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Unda kogeziy vositalar - grammatik va leksik birliklar orqali matnning bog‘liqligi va yaxlitligi izohlangan. R.de Bogrande va U.U.Dressler, J.Braun va J.Yul, J.Sinkler va M.Koulthard, T.Deborah, H.G.Uiddouson, S.Titscher va boshqalar, J.Renkem va boshqalar matn lingvistikasi va diskurs tahlili zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan biri, matnni mustaqil kommunikativ birlik sifatida o‘rganib, unda kogeziya va kogerensiyaga alohida e‘tibor qaratishgan<sup>3</sup>.

Pragmatik yondashuv doirasida D.Shiffrin, B.Frayzer, S.K.Levinson, K.Buler, H.P.Grays, D.Sperber va D.Uilson, R.Stalneyker, J.L.Ostin, J.Syorl<sup>4</sup> va boshqalarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutsa, kognitiv yondashuv orqali matnni o‘quvchi ongida qanday mental modellar orqali tushunilishi bilan bog‘liq tadqiqotlar Tyun A. fan Dayk, U.Kintch, P.Uo‘rs, R.Shenk va R.Abelson, J.Braun va J.Yul<sup>5</sup> asarlarida kogerensiya va kogeziyani nutq va yozma matnlar doirasida pragmatik aspektdan yoritib, o‘quvchi yoki tinglovchining matnni qanday idrok etishi, qanday kutishlar asosida mantiqiy bog‘liqlik hosil qilinishi haqida asosli tahlillar bergan.

O‘zbek tilshunosligida A.Nurmonov, N.Mahmudov, Sh.S.Safarov, I.K.Mirzayev, Sh.Shaxobiddinova, Z.I.Rasulov, N.F.Qosimova, Sh.Abdurahmonova, G.Abdullayeva, Z.Ziyodova, N.E.Ermatova, M.M.Zokirovalarning tadqiqotlari matn va diskurs pragmatikasi, diskurs va uning lingvopragmatik xususiyatlari, diskursning kognitiv xususiyatlari va matn tuzilmasidagi kogeziy vositalar, ingliz badiiy matnlarida kogerensiyaning

---

<sup>2</sup> Halliday M.A.K., Hasan R. *Cohesion in English*. – London: Longman, 1976. – 374 p; Halliday M.A.K., Hasan, Ruqaiya. *Language, Context, and Text: Aspects of Language in a Social-Semiotic Perspective*. – Geelong, Australia: Deakin University Press, 1985. – 126 p.

<sup>3</sup> R.de Beaugrande, Dressler W.U. *Introduction to Text Linguistics*. – London: Longman, 1976. – P. 3-95; Sinclair J, Coulthard M. *Towards an Analysis of Discourse: The English Used by Teachers and Pupils*. – Oxford, UK: Oxford University Press, 1975. – P.90-123; Deborah T. *Analyzing Discourse: Text and Talk*. – Washington, DC, USA: Georgetown University Press, 1982. – 365 p; Widdowson H.G. *Explorations in Applied Linguistics*. – Oxford, UK: Oxford University Press, 1979. – 202 p; Titscher S, Meyer M, Wodak R, Vetter E. *Methods of Text and Discourse Analysis*. – London, UK: SAGE Publications, 2000. – 288 p; Renkema J. *Introduction to Discourse Studies*. – Amsterdam / Philadelphia: John Benjamins Publishing, 2004. – 408 p.

<sup>4</sup> Schiffrin D. *Discourse markers*. – Cambridge, UK: Cambridge University Press, 1987. – 342 p; Fraser B. "What are Discourse Markers?" *Journal of Pragmatics*, 31(7), 1999. – P.931-952; Levinson S.C. *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p; Bühler K. *Theory of Language: The Representational Function of Language* (trans. Donald F. Goodwin, 1990). Amsterdam: John Benjamins, 1934/2011. – 282 p; Grice H.P. *Logic and Conversation*. In: Cole, P., & Morgan, J. (Eds.), *Syntax and Semantics, Vol. 3: Speech Acts*, New York: Academic Press, 1975. – P. 41-58; Sperber D, Wilson D. *Relevance: Communication and Cognition* (2nd ed.). Oxford: Blackwell Publishing, 1986. – 380 p; Stalnaker R. *Pragmatic Presuppositions*. In: Munitz, M., & Unger, P. (Eds.), *Semantics and Philosophy*. New York: New York University Press, 1974. – P. 197-213; Austin J.L. *How to Do Things with Words*. Oxford: Clarendon Press, 1962. – 168 p; Searle J.R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.

<sup>5</sup> Teun A. van Dijk. *Macrostructures: An Interdisciplinary Study of Global Structures in Discourse, Interaction, and Cognition*. – Hillsdale, NJ, USA: Lawrence Erlbaum Associates, 1980. – P. 85-129; Kintsch W. *The Role of Knowledge in Discourse Comprehension: A Construction-Integration Model*. *Psychological Review*, 95(2), 1988. – P. 163-182; Werth P. *Text Worlds: Representing Conceptual Space in Discourse*. London: Longman, 1999. – 432 p; Schank R.C, Abelson R.P. *Scripts, Plans, Goals, and Understanding: An Inquiry into Human Knowledge Structures*. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1977. – 248 p; Brown G, Yule G. *Discourse Analysis*. Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 288 p.

pragmatik asoslari, kogerensiya va kogezi vositalarning tarjima jarayonidagi talqini kabi masalalarga bag'ishlangan <sup>6</sup>.

Garchi yuqoridagi nazariyalar matn va diskursni tahlil qilishda muhim asos bo'lsa-da, aynan ingliz badiiy diskursida kogezi vositalarning kogerensiyani ta'minlashdagi funksional imkoniyatlarini kompleks tahlil qilgan tadqiqotlar nisbatan kam amalga oshirilgan. Ayniqsa, inglizabon yozuvchilarning qisqa hikoyalari asosida bu vositalarning grammatik, leksik, pragmatik va kognitiv jihatdan o'rganilishi dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrasining 2021-2026 yillarga mo'ljallangan "Pragmalingvistika, funktsional tarjimashunoslik, va til o'rgatish jarayonlari integratsiyasi" mavzuidagi ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz badiiy diskursida kogerensiya ta'minotida kogezi vositalar funktsionalligini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ingliz badiiy diskursida kogerensiya va kogesiya tushunchalarining nazariy asoslarini o'rganish hamda ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni izohlash;

ingliz badiiy diskursida, xususan hikoyalar misolida grammatik kogezi vositalar: referensiya, ellipsis, substitutsiya, bog'lovchilar; leksik kogezi vositalar: sinonim, antonym, giponim, meronym, kollokatsiyalarning funksional tahlilini amalga oshirish;

ingliz badiiy diskursida pragmatik tasniflash, kontekst, diskurs markerlar, deiktik birliklar va ularning matn kogerensiyasidagi o'rnini aniqlash;

pragmatik yondashuv asosida badiiy diskursdagi kogerensiyani ta'minlovchi implikatura, presuppozitsiya va nutq aktlarining funktsionalligini aniqlash va ularning rolini ochib berish;

ingliz badiiy diskursida freym, skript, ssenariy, sxema kabi kognitiv mexanizmlarning matn kogerentligini ta'minlashdagi ahamiyatini tahlil qilish;

---

<sup>6</sup> Safarov Sh.S. Ingliz tilida diskurs va pragmatik tahlil. Toshkent: Sharq, 2020; Diskurs va koheziv vositalar: ingliz va o'zbek tillarida taqqoslash. *Filologiya masalalari*, 2017. – P. 45-60; Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста. Дисс.доктора филол.наук. – Ташкент: институт языкознания АН РУз, 1992. – 372 с; Rasulov Z.I. Nutqiy tuzilmalar axborot-diskursiv mazmuni shakllanishi jarayonida tejamkorlik tamoyilining faollashuvi (ingliz va o'zbek tillari materiali asosida). Fil.f.d. ... dissertatsiya. – B., 2022; Qosimova N.Q. Tarjima kognitiv mexanizmlarida psixolingvistik qoliqlar ishtirokining lingvomadaniy shartlanishi. Filol. fan. d-ri. (Dsc) ... diss. Avtoref. – B., 2024; Abdurahmonova Sh. Ingliz tilida pragmatik birliklarning lingvistik tahlili (deixis, presupposition, implicature). Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri. (PhD) ... diss. Avtoref. – T., 2018; Abdullaeva G. Ingliz va o'zbek tillarida matnning pragmatik strukturalari. Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri. (PhD) ... diss. Avtoref. – T., 2021; Ziyodova Z. Ingliz badiiy matnlarida kogerensiyaning pragmatik asoslari. Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri. (PhD) ... diss. Avtoref. – T., 2020; Ermatova N.E. Matn va diskurs pragmatikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 135 b; Zokirova M.M. Diskurs va uning lingvopragmatik xususiyatlari. Toshkent: Fan, 2013. – 170b; Karimov A. "Matndagi bog'lovchilar orqali izchillikning ta'minlanishi." O'zbek tili va adabiyoti jurnal, 2020. – B.15-30; Tursunov X. "Diskursning kognitiv xususiyatlari va matn tuzilmasidagi kogezi vositalar." *Filologiya masalalari* jurnali, 2029. – B. 45-60; Yakubova G. "Ingliz tili badiiy matnlarida nutq aktlari va ularning pragmatik tahlili." *Filologiya masalalari*, 2012. – №2. B.45-51; Yusupova N. "Kogerensiya va kogezi vositalarning tarjima jarayonidagi talqini (ingliz va o'zbek tillari misolida)." *O'zbek tili va adabiyoti*, 2016. – №3. B. 82-88; Salomova M. "Matnning lingvopragmatik xususiyatlari: nutq aktlari va stilistik birliklar." *Til va adabiyot ta'limi*, 2014. – №4. B. 55-61.

kognitiv yondashuv asosida ingliz badiiy diskursida kogerensiyaning shakllanishida mental modelning vazifadorligi hamda inferensiyaning voqelanish shakllarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida ingliz badiiy diskursida kogeziiv va kogerent vositalari tanlangan.

**Tadqiqotning predmet**ini ingliz badiiy diskursida kogeziiv vositalarning funksional xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tavsiflash, tasniflash, kontekstual-diskursiv, funksional-kommunikativ, lingvopragmatik, lingvokognitiv tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

ingliz badiiy diskursida kogeziiv vositalarning kogerensiyani shakllantirishdagi funksional roli grammatik vositalar: referensiya, ellipsis, substitutsiya, bog'lovchilar hamda leksik vositalar: sinonim, antonim, giponim, meronim, leksik bog'lanma (kollokatsiya)lar badiiy matn izchilligi va mazmuniy yaxlitligini ta'minlashda birlamchi qiymat kasb etishi aniqlangan;

ingliz badiiy diskursdagi ma'no va mazmun yaxlitligini ta'minlovchi diskurs markerlar va deiktik birliklar matnni idrok etishga ta'sir ko'rsatadigan omil hamda uning kontekstual-pragmatik salohiyatini belgilashda ustuvor vositalar ekanligi isbotlangan;

ingliz badiiy diskursida gaplar o'rtasidagi mantiqiy bog'lig'lanishlar, kommunikativ maqsadlar aniq ifodalanmagan, biroq tushunilishi lozim bo'lgan tagma'no, implikatura hamda oldindan mavjud bo'lgan bilimlarga asoslangan tushuncha, presuppositiya kogerensiyaning pragmatik asosda namoyon bo'lishidagi ustivorligi dalillangan;

mental model nazariyasidan foydalanish asnosida ingliz badiiy diskursining subyekt bilim, tajriba va idroki darajasiga qarab, turlicha talqin qilinishi mumkinligini aniqlashda freym, skript, ssenariy, sxema kabi kognitiv vositalar ta'sirida resipient ongida yuzaga keladigan izchillik qoliplarining shakllanishi kogerensiya darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslangan;

ingliz badiiy diskursida kognitiv mantiqiy xulosa (inferensiya) resipientga matn ma'nolari tizimini, mavzuning kutilmaganda o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan lisoniy va g'ayrilisoniy holatlarni tushunishda, hikoyaning kontekstual ma'no qirralari va kogerensiyasini ta'minlashda muhim omil ekanligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ingliz badiiy diskursini tahlil qilishda kogesiya va kogerensiyani integrativ yondashuv asosida o'rganish metodikasi ishlab chiqilib, u orqali matnni grammatik, leksik, pragmatik va kognitiv jihatlardan izchil tahlil qilish imkoniyati yaratilgan hamda ushbu yondashuv tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida badiiy matnlarni chuqur tahlil qilishda qo'llanilishi asoslangan;

o'quv jarayonida badiiy matnlar asosida kogerensiya va kogeziyaga oid bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi amaliy topshiriqlar majmuasi talabalarda matndagi izchillikni aniqlash, diskurs markerlarini farqlash, implikatura va presuppozitsiyani tushunish, shuningdek, kontekstual tafakkurni rivojlantirishga qaratilgani ochib berilgan;

pragmatik va kognitiv yondashuv asosida badiiy matnlarning kommunikativ tahlilini amalga oshirish bo'yicha namunaviy tahlil texnologiyasi matn ichidagi yashirin ma'no, kontekst, nutq aktlari va o'quvchining idrok modellarini aniqlash orqali kogerensiyani tushunishga yordam berishi va uni lingvodidaktik maqsadlarda ham qo'llash mumkinligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning dissertatsiyada tavsiflash, tasniflash, kontekstual-diskursiv, funksional-kommunikativ, lingvopragmatik, lingvokognitiv tahlil metodlari bilan asoslanganligi, nazariy g'oyalar va ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o'tkazilganligi hamda natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kommunikativ hamda kognitiv tilshunoslik g'oyalarini tilning diskursiv qonuniyatlari xususiyatlari, ingliz tilining funksional tizimi tadqiqiga tatbiq qilish imkoniyatida namoyon bo'ladi, shuningdek, olingan natijalar tilshunoslikning diskurs tahlili, kognitologiya, nutqiy tuzilmalar sintaksisi va pragmatikasiga oid qator muammolar yechimini izlash borasida nazariy ahamiyatga molikligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, dastavval, uning natijalaridan oliy o'quv yurtlarida umumiy tilshunoslik, diskurs tahlili, matn lingvistikasi, zamonaviy tilshunoslik fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish va maxsus seminarlarni tashkil qilishda, yangi ko'rinishdagi darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish, turli ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda manba xizmatini o'tashi mumkinligida namoyon bo'lishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz badiiy diskursida kogerensiya ta'minotida kogezi vositalar funksionalligi tadqiqini amalga oshirish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

ingliz badiiy diskursida kogezi vositalarning kogerensiyani shakllantirishdagi funksional roli grammatik vositalar: referensiya, ellipsis, substitutsiya, bog'lovchilar hamda leksik vositalar: sinonim, antonim, giponim, meronim, leksik bog'lanma (kollokatsiya)lar badiiy matn izchilligi va mazmuniy yaxlitligini ta'minlashda birlamchi qiymat kasb etishiga doir nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan OT-F1-029 sonli "O'zbek davlatchiligi tarixida sug'diy til va yozuvining tutgan o'rni (mil.av.II – milodiy XII asrlar)" mavzuidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 3-iyundagi №01/4-2269-son ma'lumotnomasi). Natijada badiiy diskursga oid nazariy bilimlarni amaliy tahlil bilan uyg'unlashtirish orqali kommunikativ kompetensiyani oshirish imkoniyati yaratilgan;

ingliz badiiy diskursdagi ma'no va mazmun yaxlitligini ta'minlovchi diskurs markerlar va deiktik birliklar matnni idrok etishga ta'sir ko'rsatadigan omil hamda uning kontekstual-pragmatik salohiyatini belgilashda ustuvor vositalar ekanligi bilan bog'liq xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda bajarilgan AM-F3-201908172 "O'zbek tilining ta'limiy

korpusini yaratish” mavzuidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 3-iyundagi №01/4-2270-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz badiiy diskursga oid nazariy ma’lumotlarni pragmatik tahlili orqali diskursiv kompetensiyani o‘rganish imkoniyati yaratilgan;

ingliz badiiy diskursida gaplar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lig‘lanishlar, kommunikativ maqsadlar aniq ifodalanmagan, biroq tushunilishi lozim bo‘lgan tagma’no, implikatura hamda oldindan mavjud bo‘lgan bilimlarga asoslangan tushuncha, presuppositiya kogerensiyaning pragmatik asosda namoyon bo‘lishidagi ustivorligiga doir xulosalardan Buxoro davlat universitetida AQSH Elchixonasi tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80021IN3103-raqamli loyiha doirasida tashkil etilgan “Amerika adabiyoti klubi”da o‘tkazilgan Jon Steynbek, Frensis Skott Fitsdjerold va Ernest Xeminguey kabi amerika yozuvchilarining adabiy mahorati tahliliga bag‘ishlangan xorijiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Urganch davlat universitetining 2025-yil 12-maydagi № 06/3059-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘quvchilarga xorijiy til o‘rgatishda o‘qituvchilar tomonidan lingvota’limshunoslik terminlaridan samarali foydalanish imkoniyati yaratilgan.

mental model nazariyasidan foydalanish asnosida ingliz badiiy diskursining subyekt bilim, tajriba va idroki darajasiga qarab, turlicha talqin qilinishi mumkinligini aniqlashda freym, skript, ssenariy, sxema kabi kognitiv vositalar ta’sirida respient ongida yuzaga keladigan izchillik qoliplarining shakllanish kogerensiya darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishiga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-noyabrdagi 673-sonli buyrug‘iga asosan berilgan №673-13 raqamli nashr guvohnomasi asosida 70230101 – Lingvistika (ingliz) mutaxassisligi talabalari uchun “Textlinguistics” nomli o‘quv qo‘llanmasini yaratishda foydalanilgan (Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 16-maydagi №3226-son ma’lumotnomasi). Natijada kogeziya va kogerensiyaning til va nutqdagi o‘rni, qo‘llanishi, funksional xususiyatlariga doir nazariy hamda faktik materiallar orqali o‘quv adabiyoti mazmuni takomillashtirilgan;

ingliz badiiy diskursida kognitiv mantiqiy xulosa (inferensiya) respientga matn ma’nolari tizimini, mavzuning kutilmaganda o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan lisoniy va g‘ayrilisoniy holatlarni tushunishda, hikoyaning kontekstual ma’no qirralari va kogerensiyasini ta’minlashda muhim omil ekanligiga oid xulosalardan “Buxoro” telekanalining “Assalom, Buxoro”, “Najot bilimda” teleko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 13-maydagi №01-09-100-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo‘lishiga erishilgan va ko‘rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta’minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 15 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 4 ta xorijiy 11 ta respublika konferensiyalarida qilingan ma’ruzalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 32 ta ilmiy ish, shundan, 1 ta monografiya, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta darslik

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 14 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi xorijiy va 10 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 238 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kogeziya va kogerensiyaning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan tarkib topgan, unda kogerensiya va kogeziya tushunchalarining diskurs tahlilidagi o‘rni, badiiy diskurs doirasida kogerensiya va kogeziyaning ahamiyati, kogeziya va kogerensiyaga oid turli yondashuvlar va mazkur tadqiqotning nazariy asoslarini belgilash zaruriyati masalalar tadqiqi keltirilgan.

“Kogeziya” tushunchasi birinchi bo‘lib M.A.K.Xallidey va R.Hasan tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, ularning asosiy e‘tibori matnda gaplarning o‘zaro qanday bog‘lanishini o‘rganishga qaratilgan. Ularning ta’kidlashicha, paragrafning turli qismlari o‘zaro kogeziv vositalar orqali bog‘lanadi.

*A text has texture, and this is what distinguishes it from something that is not a text... If a passage of English containing more than one sentence is perceived as a text, there will be certain linguistic features present in that passage which can be identified as contributing to its total unity and giving it texture.*

M.A.K.Xallidey va R.Hasan ta’kidlaganlaridek, muallif matnda bog‘liq gaplar o‘rtasidagi ma’nolarni turli yo‘llar bilan bir butun holda ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi va kogeziya aynan shu mazmun tuzilmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, ular kogeziyani matnning yaxlit va uzviy bog‘langanligini yoki shunchaki aloqasiz gaplar to‘plami ekanligini ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida baholaydilar. Biroq, alohida ta’kidlash kerakki, kogeziya gaplar o‘rtasidagi ma’noga daxldor bo‘lsa-da, u matnning mazmun jihatiga bog‘liq emas. M.A.K.Xallidey va R.Hasan ushbu holatni aniq ko‘rsatib o‘tganlar: **“Kogeziya matn nimani anglatishi bilan emas, balki uni semantik inshoot sifatida qanday tuzilganligi bilan bog‘liqdir”**<sup>7</sup>. Demak, kogeziya odatda paragraf doirasida muhim rol o‘ynasa-da, u butun matnning paragrafdan-paragrafga uzviylikini ta’minlamaydi.

---

<sup>7</sup> Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. – London: Longman, 1976. – 374 p;

Kogeziya gaplararo aloqani grammatik vositalar orqali ta'minlovchi til birliklari sifatida talqin qilinsa, kogerensiya H.G.Uiddouson tomonidan illokutsion aktlar o'rtasidagi munosabat sifatida ko'riladi. Ya'ni, biror nutq birligi kogerent deb baholanishi uchun, u orqali amalga oshirilayotgan harakatlar tinglovchi tomonidan anglanishi kerak. Nutq faqat kontekstda, ya'ni nutq strukturasi va kommunikativ strategiyalar orqali talqin qilinadi. Masalan, nutqni tushunishda biz ko'pincha agar bir gap boshqasidan keyin kelsa, ular o'rtasida qandaydir mantiqiy bog'liqlik bor deb taxmin qilamiz. Kogerensiya esa gaplar o'rtasidagi mantiqiy, semantik va kommunikativ aloqalar majmui sifatida qaraladi<sup>8</sup>. D.Shiffrin nuqtayi nazariga ko'ra, kogeziya turli xil nutq turlarida mavjud bo'lib, u so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi interaktiv muloqot vositasi sifatida ishlatiladi. D.Shiffringa ko'ra, kogeziya vositalari – muloqot davomida ma'noni aniqlash va suhbatni anglashni osonlashtiruvchi ishoralaridir<sup>9</sup>. Shu sababli, nutq kogerensiyasi so'zlovchining turli lingvistik va nolingvistik vositalardan foydalangan holda o'z xabarini aniq kontekstda ifodalashi va tinglovchining ushbu ishoralarni bir butun tarzda anglash qobiliyatiga bog'liqdir.

R. de Bogrande va U.U.Dressler haqiqiy matn faqat grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishi bilan emas, balki ma'no jihatdan yaxlit va kommunikativ vazifani bajara olishi bilan ajralib turadi deb ta'kidlashadi. Ular ilgari surgan yetti mezon kogeziya va kogerensiya bilan bir qatorda, intentionality (muallifning maqsadi), acceptability (o'quvchi tomonidan qabul qilinishi), informativity (yangi ma'lumot miqdori), situationality (matnning kontekstga bog'liqligi) va intertextuality (boshqa matnlar bilan aloqadorlik) matnning kommunikativ samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida qaraladi. Kogeziya matnda bog'lovchilar, ishora vositalari, sinonimiya va boshqa vositalar orqali yuzaga chiqsa, kogerensiya esa chuqur ma'no darajasida, mazmuniy izchillik va mantiqiy bog'liqlik orqali shakllanadi. Ularning yondashuvi matnni strukturaviy, semantik va pragmatik jihatdan kompleks tarzda o'rganish imkonini beradi<sup>10</sup>.

Kogerensiyani ta'minlashda diskurs markerlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ishtirokchilarning muloqotini yengillashtiruvchi va mazmun, shakl va harakatlarni uyg'unlashtiruvchi vositalardir. Bular og'zaki nutqda lingvistik va ekstralingvistik (ya'ni, nolingvistik) belgilar bo'lib, ishtirokchilar o'rtasida umumiy tushunishni shakllantiradi. Biroq Shiffrin shuni ham qayd etadiki, nutq markerlarisiz ham mantiqan bog'langan bo'lishi mumkin. U agar suhbat kontekst doirasida davom etsa va gaplar o'rtasidagi ma'no aloqalari allaqachon aniqlangan bo'lsa, markerlar ishlatilishi shart emas deb ta'kidlaydi. Aksariyat hollarda, gaplar o'rtasidagi semantik munosabatlar tinglovchi yoki o'quvchi uchun yetarlicha aniq bo'ladi va markerlarsiz ham ularni tushunish mumkin deb hisoblaydi.

D.Bleykmor nutqni "gapning lingvistik shakli, kontekstual taxminlar va so'zlovchining o'z gapida dolzarb bo'lishi haqidagi taxmin" sifatida tavsiflaydi. D.Bleykmor ta'kidlaganidek, nutqni anglash ikki xil jarayon orqali amalga oshiriladi: aniq (explicit) va noaniq (implicit) jarayonlar. Aniq jarayon gap orqali

---

<sup>8</sup> Widdowson H.G. Explorations in Applied Linguistics. – Oxford, UK: Oxford University Press, 1979. – 202 p;

<sup>9</sup> Schiffrin D. Discourse markers. – Cambridge, UK: Cambridge University Press, 1987. – 342 p;

<sup>10</sup> R.de Beaugrande, Dressler W.U. Introduction to Text Linguistics. – London: Longman, 1976. – P. 3-95;

bevosita ifodalangan propozitsiyani aniqlashdan iborat bo'lsa, noaniq jarayon qo'shimcha, yashirin propozitsiyani aniqlashni o'z ichiga oladi. D.Bleykmor ning fikricha, relevansiya nazariyasi (relevance theory) nutqni anglash jarayonini har tomonlama tushuntira oladigan konsepsiyadir, chunki ayrim hollarda tinglovchining talqini faqatgina gapda aytilgan mazmunga emas, balki lingvistik bo'lmagan yoki kontekstual belgilarga ham asoslanadi. Bleykmor, shuningdek, kundalik muloqotda ishlatiladigan gaplarning ko'pi elliptik, ya'ni qisqa va to'liq bo'lmaganligini ta'kidlaydi. Masalan, oddiy suhbatda uchraydigan "Any e-mail?" kabi gaplar mustaqil ravishda aytilsa-da, tinglovchi tomonidan to'liq va aniq propozitsiyaga aylantiriladi va to'g'ri talqin qilinadi<sup>11</sup>. Demak, nutq kogerensiyasi to'g'ridan-to'g'ri tinglovchi bilan bog'liq bo'ladi va u har doim ham diskurs markerlari mavjudligidan dalolat bermaydi. D.Bleyk morning nuqtayi nazariga ko'ra, so'zlovchi matnda kogerensiyani tinglovchi uchun dolzarb etib ko'rsatganida, va tinglovchi so'zlovchi dolzarb bo'lishini taxmin qilganda, nutq to'g'ri anglanadi. Bunday holatda, tinglovchi yoki o'quvchi matnni talqin qilish uchun katta mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Kogerensiya, fan Dayk ta'rifiga ko'ra, "diskursning semantik xususiyati bo'lib, har bir gapning boshqa gaplar talqiniga nisbatan qanday talqin qilinishiga asoslanadi". Fan Dayk fikricha, gaplar o'rtasidagi kogerensiya faqat ketma-ket joylashgan propozitsiyalar o'rtasidagi aloqalarga emas, balki muayyan parchaning mavzusiga ham asoslanadi. Fan Dayk shuningdek, kogeziya kogerensiyani kafolatlamaydi va kogerensiyaning o'zi ham matnni butunlay izchil qilish uchun yetarli emasligini ta'kidlaydi. Ya'ni, matnda qo'shimcha til vositalari (masalan, kogeziy vositalar) bo'lmasa, u to'liq kogerent bo'lmaydi. Kogerensiyaning ikki darajasi mavjud:

1. Mikro-kogerensiya – propozitsiyalar o'rtasidagi ketma-ket yoki chiziqli bog'lanishlar.

2. Makro-kogerensiya – matn mavzusining umumiy rivojlanishi va butun diskursning mantiqiy izchiligi<sup>12</sup>.

N.E.Enkvist esa semantik bog'lanishning ikki turini ajratadi: 1) yuzaki darajadagi bog'lanish – kogeziya orqali; 2) chuqur darajadagi bog'lanish – kogerensiya orqali. N.E.Enkvist fikricha, kogeziya va kogerensiya bir-birini anglatmaydi. Ya'ni, matn kogeziy bo'lib, ammo kogerent bo'lmasligi yoki aksincha, kogerent bo'lib, ammo kogeziy bo'lmasligi mumkin. Shuningdek, matn bir vaqtda ham kogeziy, ham kogerent bo'lishi ham mumkin. Masalan: *Have you met Virasuda Sribayak? She was here yesterday.*

Ushbu misolda keltirilgan ikki gap "u" (she) olmoshi orqali grammatik bog'lanishga ega bo'lib, ular orasida semantik bog'lanish ham mavjud. Ya'ni, bu gaplar ham kogeziy, ham kogerent hisoblanadi. Quyidagi keying misolda esa, hech qanday grammatik yoki leksik bog'lovchi vosita (kogeziy element) ishlatilmagan bo'lsa-da, gaplar mazmunan bog'liq va kogerentdir. Ushbu misol kogerensiyaga

---

<sup>11</sup> Blakemore D. Understanding Utterances: An Introduction to Pragmatics. – Oxford: Blackwell, 1992. – 213 p;

<sup>12</sup> Teun A. van Dijk. Macrostructures: An Interdisciplinary Study of Global Structures in Discourse, Interaction, and Cognition. – Hillsdale, NJ, USA: Lawrence Erlbaum Associates, 1980. – P. 85-129;

ega, ammo kogeziy bo‘lmagan gap namunasini ko‘rishimiz mumkin. Masalan: *Liverpool shot a goal. The whistle blew.*

Keyingi misolda esa, gaplar orasida "uni" (him) olmoshi orqali grammatik bog‘lanish mavjud bo‘lib, u kogeziy vosita hisoblanadi, ammo gaplar o‘rtasida mazmun va mantiqiy izchillik, ya‘ni kogerensiya mavjud emas. Chunki pragmatik jihatdan bu gaplar bir-biri bilan mos kelmaydi. Ushbu gap kogeziy, lekin kogerent bo‘lmagan misol hisoblanadi. Masalan: *My grandfather died. I shall see him tomorrow.*

Matnda yuzaki kogeziya (surface cohesion) hamda umumiy kogerensiya (overall coherence) mavjud bo‘lishi zarur. N.E.Enkvist ta‘kidlaganidek, kogerentlik matndagi gaplar o‘quvchi yoki tinglovchining tajribasi yoki tasavvuridagi mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan dunyo manzarasiga mos kelishi lozim. Shuningdek, matndagi xabar tinglovchi yoki o‘quvchi uchun matnni to‘g‘ri talqin qilish va bog‘lash imkonini beruvchi yetarli ishoralarni taqdim etishi kerak. U kogerensiyani “Matnni izchil dunyo manzarasiga mos qiladigan va uni umumlashtirish hamda talqin qilish imkonini beradigan sifat hisoblanadi”, deb ta‘riflaydi<sup>13</sup>. Shu bois, kogerensiya asosan matnning tabiati va xususiyati bilan bog‘liq bo‘ladi.

N.E.Enkvist kabi, J.Braun va J.Yul ham kogerensiya, birinchi navbatda, til orqali ifodalangan xabarlarining talqin qilinishiga bog‘liq ekanligini ta‘kidlashadi. Ularning fikricha, o‘quvchi yoki tinglovchi, hatto gaplar o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatuvchi aniq kogeziy vositalar mavjud bo‘lmasa ham, gaplar ketma-ketligini kogerent deb talqin qilishga harakat qiladi.

*Within chunks of language which are conventionally presented as texts, the hearer/reader will make every effort to impose a coherent interpretation, i.e. to treat the language thus presented as constituting “text”. We do not see an advantage in trying to determine constitutive formal features which a text must possess to qualify as a “text.” Texts are what hearers and readers treat as texts* <sup>14</sup>.

Bundan tashqari, kogeziya va kogerensiyaga oid boshqa qarashlar ham mavjud. Masalan, R.Morgan va M.Sellner matnda mazmun (content) muhim o‘rin tutishini ta‘kidlaydilar. Ularning fikricha, kogeziya matn mazmuniga bog‘liq bo‘lib, shu bilan birga lingvistik natijalarni ham keltirib chiqaradi<sup>15</sup>. P.L.Kerrell esa kogeziya matnda kogerensiyani avtomatik ta‘minlamaydi, deb hisoblaydi, chunki “faqatgina mazmunning kogerensiyasi matnni kogerent qilmaydi”, aksincha, “matnni kogerent qiladigan qo‘shimcha lingvistik xususiyatlar (kogeziyaga o‘xshash) bo‘lishi ham mumkin” <sup>16</sup>. Demak, kogeziya – bu kogerensiyaning sababi emas, balki natijasidir. Sxemalar (schemata) asosida o‘quvchilar, hatto kam yoki umuman kogeziy vositalarsiz ham, matndan kogerensiyani anglab olishlari mumkin.

---

<sup>13</sup> Enkvist N.E. Coherence, Pseudocoherence, and Non-coherence. In *Nordic Prospects in Linguistic Theory*, edited by Jens Allwood and Jørgen L. Mey, Odense: Odense University Press, 1978. – P. 109-128;

<sup>14</sup> Brown G., Yule G. *Discourse Analysis*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 288 p.

<sup>15</sup> Morgan R., Sellner M. *Discourse Coherence and Human Experience. Theoretical Issues in Reading Comprehension*. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1980. – P. 363-380;

<sup>16</sup> Carrell P.L. *Cohesion Is Not Coherence*. – TESOL Quarterly, vol. 16, no. 4, 1982. – P. 479-488;

Matnshunoslik nuqtayi nazaridan M.Hoey leksik kogeziy vositalar matni qanday qilib tashkil etishini o'rgangan. U leksik birliklar va sintaktik takrorlar matndagi kogeziyani ta'minlashini tahlil qiladi. Tadqiqotida M.Hoey kogeziya va kogerensiya o'zaro bog'liq holda matn tashkil etishini ko'rsatadi. Umuman olganda, kogeziya kogerensiyani ta'minlovchi vosita sifatida qaraladi. Kogeziy va kogerent bo'lgan matn o'quvchiga axborotni tez va aniq anglash imkonini beradi. M.Hoey "Kogeziya – matnning xususiyati, kogerensiya esa o'quvchining matnga bergan bahosidir", deb ta'kidlaydi. Shuningdek, M.Hoey fikricha, leksik takror (lexical repetition), asosiy kogeziy vositalardan biri bo'lib, matnda bog'lanishlar tizimi va tarmog'ini yaratadi. U leksik takrorlar gaplar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsata olishini ta'kidlaydi. M.Hoey leksik takrorlarning sakkiz turini ajratadi: *oddiy leksik takror (simple lexical repetition)*, *murakkab leksik takror (complex lexical repetition)*, *oddiy o'zaro parafraz (simple mutual paraphrase)*, *oddiy qisman parafraz (simple partial paraphrase)*, *murakkab parafraz (complex paraphrase)*, *substitutsiya (substitution)*, *koreferensiya (co-reference)*, *ellipsis (ellipsis)*<sup>17</sup>.

A.M.Jons kogerensiyani ikki turga ajratadi: matnga asoslangan kogerensiya va o'quvchiga asoslangan kogerensiya. Uning ta'rifi ko'ra, matnga asoslangan kogerensiya matnning o'ziga xos xususiyati bo'lib, kogeziya va yaxlitlikni o'z ichiga oladi. Ushbu kogerensiya turi gaplarning qanday bog'langanligi va matnning qanday yaxlitligini anglatadi. O'quvchiga asoslangan kogerensiya esa o'quvchi va matn o'rtasidagi muvaffaqiyatli o'zaro aloqani talab qiladi. Ushbu turdagi kogerensiya o'quvchining kutilmalari va muallif maqsadi o'rtasidagi moslik darajasiga bog'liq bo'lib, matnning ichki tuzilmasi orqali namoyon bo'ladi<sup>18</sup>.

U.Konnor va A.M.Jons kogerent matni "o'quvchi kutilmalari ro'yobga chiqqan matn"<sup>19</sup> deb ta'riflaydi. O'quvchi matni talqin qilishda o'z dunyo haqidagi bilimlariga tayanadi va shu bilimlar matnning tuzilishi va mazmuni bilan mos kelishini kutadi. O'quvchi ushbu bilimlar orqali keyinchalik matnda keltiriladigan ma'lumotlarni oldindan taxmin qiladi. O'quvchi bilan o'zaro aloqada bo'lgan kogerent matn o'quvchining mantiqan ketma-ket g'oyalar haqidagi kutilmalarini qondiradi, bu esa o'quvchining matni tushunishiga va uning aniq ma'nosini anglashiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, so'zlar va gaplarning yaxlit bog'lanishi orqali ifodalangan mantiqiy g'oyalar o'quvchining matndagi ma'lumotni oson va to'g'ri talqin qilishiga yordam beradi.

Garchi diskurs mavzusi bo'yicha tadqiqotlar murakkab soha bo'lsa-da, kogeziya va kogerensiya uning muhim jihati, diskursning ierarxik tashkil etilishini o'z ichiga oladi. L.Lotamatti o'quvchining matn va uning mavzusini qanday anglashini o'rgangan. Uning fikricha, kogerensiya aniq gap mavzusiga asoslanadi.

---

<sup>17</sup> Hoey M. *Patterns of Lexis in Text*. – Oxford: Oxford University Press, 1991. – 244 p.

<sup>18</sup> Johns A.M. *Coherence and Academic Writing: Some Definitions and Suggestions for Teaching*. – TESOL Quarterly, vol. 20, no. 2, 1986. – P. 247-265;

<sup>19</sup> Connor U., Johns A.M. eds. *Coherence in Writing: Research and Pedagogical Perspectives*. – Alexandria, VA: TESOL, 1990. – 235 p;

U mavzu (topic) va izoh (comment) atamalaridan foydalanib, matn oqimini tahlil qilishga doir yondashuvni taklif etadi.

L.Lotamattiga ko'ra, mavzu, bu gap nimadan bahs etayotgani va izoh mavzu haqidagi ma'lumotdir. Har bir gap mavzusi matnning umumiy diskurs mavzusi bilan turli yo'llar bilan bog'liq bo'ladi. Diskurs mavzusi va kichik mavzular o'rtasidagi munosabatlar tizimi diskursning mavzuviy rivoji deb ataladi. Ushbu rivojlanish uch turdagi harakat orqali yuzaga chiqadi: Parallel rivojlanish (parallel progression) – ketma-ket gaplarda aynan bir mavzuning saqlanishi; ketma-ket rivojlanish (sequential progression) – oldingi gap izohining keyingi gapda yangi mavzu bo'lib paydo bo'lishi; kengaytirilgan parallel rivojlanish (extended parallel) – parallel rivojlanish bo'lib, u ketma-ket rivojlanish orqali uzilib, keyinchalik yana davom ettiriladi<sup>20</sup>.

Biroq, Functional Sentence Perspective (FSP), ya'ni funksional nazariya axborot oqimini boshqarish va diskursni tashkil etish uchun muqobil nazariy asosni taqdim etadi. Aksariyat FSP tarafdorlari gap mavzusi (topic), odatda, avvalgi gaplarda berilgan ma'lumotni ifodalaydi deb hisoblashadi. Izoh (comment) esa yangi ma'lumotni ifodalaydi, ya'ni oldingi gaplardan olinmagan yoki ularga bevosita bog'liq bo'lmagan ma'lumotni bildiradi. Shunday qilib, axborot oqimi mavzudan izohga tomon harakatlanadi, bu esa inson tafakkuri harakatini aks ettiradi, chunki ong yangi ma'lumotni qabul qilishdan oldin tanish yoki kontekstual ma'lumotga tayanadi. Shu bois, FSP nazariyotchilari gapni umumiy kommunikativ jarayon doirasidagi funksional qismlarga ajratish bilan shug'ullanadilar. Masalan, ingliz tilidagi oddiy gaplar ko'pincha mavzu va izoh elementlaridan iborat deb qaraladi. Gap mavzusi ko'pincha grammatik ega bilan bog'liq bo'ladi, izoh esa kesim bilan, ya'ni gapdagi asosiy diqqat markazi bilan bog'liq bo'ladi.

FSP talablariga mos keluvchi diskurs o'quvchi uchun o'qishga qulay va bog'langan bo'ladi. Mavzu (theme) o'rtasidagi bog'lanishlar odatda bir xil shaxs/obyekt zanjiri (identity chains), qisman o'xshashlik (partial identity), sinoimiya (synonymy), antonimiya (antonymy), giperonimiya (hyponymy) va meronimiya (meronymy) kabi semantik munosabatlar orqali yuzaga chiqadi. Rema (rheme) o'rtasidagi bog'lanishlar esa ketma-ket gaplarda takrorlanuvchi identik hukmlar (predikatsiyalar) orqali hosil bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, tema va rema o'rtasidagi bog'lanishlar modeli matnning faqat bir qismini izohlash uchun xizmat qiladi. Matndagi turli xil bog'lanish naqshlari (patterns) butun matnni qamrab oladi. Bundan tashqari, mavzu va izoh bog'lanishi modeli matn ichidagi bog'lanish naqshlarini ifodalashi mumkin bo'lsa-da, har xil matn janrlarida uchraydigan kogerensiyani (mazmuniy bog'liqlikni) to'liq tushuntirib bera olmaydi. Ya'ni, kontekstual va predikativ vaziyatlarda (propositional situations) uchraydigan kogerensiyani bu model yordamida har doim ham tushuntirish imkoni yo'q.

---

<sup>20</sup> Lautamatti L. Observations on the development of the topic in simplified discourse. In V. Kohonen & N.E. Enkvist (Eds.), *Text linguistics, cognitive learning, and language teaching*, 1978. – P. 71-104.

M.A.K. Xallidey va Ruqaya Hasan tomonidan ilgari surilgan kogeziy bog‘lanishlar (cohesive ties) nazariyasi keyinchalik kogeziy uyg‘unlik (cohesive harmony) nazariyasiga aylantirildi<sup>21</sup>. Matnni yaxlit va yaxshi yozilgan deb baholashda faqat kogeziy bog‘lanishlardan foydalanish cheklovlari sababli, R.Hasan kogeziy uyg‘unlik nazariyasini yaratdi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, kogerensiya (mazmuniy bog‘liqlik) matnda qanday va qancha kogeziy bog‘lanishlar ishlatilgani bilan emas, ularning bir-biri bilan qanday va qanchalik tez-tez o‘zaro ta’sirga kirishishi bilan belgilanadi. R.Hasanning nazariyasiga ko‘ra, ikki turdagi kogeziy bog‘lanishlar bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi mumkin: identik zanjirlar (identity chains) – shaxs olmoshlari (pronominal cohesion) orqali hamda o‘xshashlik tizimlari (similarity strings) – substitutsiya (almashtirish), ellipsis (tushirish), takrorlash, sinonimiya, antonimiya, giperonimiya va meronimiya orqali ifodalanadi. O‘zaro ta’sir (interaction) bir zanjir yoki tizim a’zosi boshqa bir yoki undan ortiq zanjir yoki tizim a’zolari bilan identik munosabatda bo‘lganida yuzaga keladi.

Ikkinchi bob **“Ingliz badiiy diskursida kogeziya va uning funksional yondashuvdagi talqini”** deb nomlangan bo‘lib, unda M.A.K. Xallidey va R.Hasan tomonidan ilgari surilgan kogeziy vositalar nazariyasi, grammatik va leksik darajadagi kogeziy vositalar, ushbu vositalarning badiiy diskurs tarkibida matn birligini ta’minlashdagi o‘rni, ingliz badiiy diskursida bog‘lovchilarning funksional vazifalari, ularning kogerensiyani shakllantirishdagi roli, leksik kogeziy vositalar va ularning o‘ziga xosligi masalalari yoritilgan.

Kogeziya tushunchasi funksional yondashuvda, xususan M.A.K. Xallidey va R.Hasan tomonidan ishlab chiqilgan tizimli-funksional tilshunoslik modeli doirasida keng yoritilgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, matn kogeziyasining asosiy ko‘rinishlari grammatik va leksik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Grammatik kogeziy vositalarga referensiya, ellipsis, substitutsiya va bog‘lovchilar kirsas, leksik vositalar esa sinonimiya, antonimiya, giperonimiya, meronimiya va kollokatsiyani o‘z ichiga oladi<sup>22</sup>. Aynan mana shu birliklar matn birligi va izchilligini, ya’ni kogerensiyani ta’minlovchi vositalar sifatida xizmat qiladi.

M.A.K. Xallidey va R.Hasan grammatik kogeziyaning to‘rtta asosiy turi: *referensiya*, *substitutsiya*, *ellipsis* va *bog‘lovchilarga* ajratadi. Ulardan referensiya grammatik kogeziyaning markaziy komponentlaridan biri bo‘lib, matnning ichki izchilligini ta’minlashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. U matn ichida yoki tashqarisida joylashgan obyekt, hodisa yoki shaxsga ishora qilish orqali bog‘lanishni mustahkamlaydi. Referensiya ikki xil amalga oshadi: *endofora* – ishoraning talqini matn ichida berilganda, *ekzofora* – ishoraning talqini matndan tashqaridagi kontekstual ma’lumotlarga tayanilganda. Endofora esa o‘z navbatida *anafora* va *kataforaga* ajratiladi: anafora matnda oldinroq tilga olingan elementga qayta murojaat qilsa, katafora keyingi bo‘limlarda ochiladigan elementga ishora qiladi<sup>23</sup>.

---

<sup>21</sup> Halliday M.A.K., Hasan R. Language, Context, and Text: Aspects of Language in a Social-Semiotic Perspective. – Geelong, Australia: Deakin University Press, 1985. – 126 p;

<sup>22</sup> Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. – London: Longman, 1976. – 374 p.

<sup>23</sup> Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. – London: Longman, 1976. – P.33.

Masalan: *Framton Nuttel endeavoured to say the correct something...He doubted more than ever whether these formal visits...* (H.H.Munro (Saki), “The Open Window”). Bu yerda *he Framton Nuttelga* ishora qiluvchi anaforik referensiya hisoblanadi.

Keyingi, *She was waiting for her husband to come home. Mary Maloney sat quietly in the chair.* (Roald Dahl, “Lamb to the Slaughter”) misolda esa dastlab ishora, keyin *Mary Maloney* nomi keyin keltirilgan bo‘lib, ushbu misol kataforik referensiya sifatida talqin qilinadi.

Masalan: *There is one day that is ours. There is one day when all we Americans who are not self-made go back to the old home to eat saleratus biscuits and marvel how much nearer to the porch the old pump looks than it used to* (O.Henry, “Two Thanksgiving Day Gentlemen”). – egzoforik referensiya, *Thanksgivingga* bo‘lgan ishora bilvosita, noaniq tarzda berilgan. Barcha amerikaliklarning birgalikda ovqatlanishi va bayram marosimlarida ishtirok etishiga doir umumiy tajribani eslatadi. Adresatning *Thanksgiving* haqidagi madaniy bilimlari bu ishoraning ma’nosini ochib, qahramonlarning xatti-harakatlarini kengroq madaniy ramkaga joylashtiradi va shu yo‘l bilan matnga kogerentlik hosil bo‘ladi. *Ours* sifatida tilga olingan *Thanksgiving*, adresatning oldindan mavjud bilimiga tayanadi, ya’ni bu bayramning Amerika madaniyatidagi minnatdorchilik, to‘yib ovqatlanish va oilaviy an’analar kabi asosiy ma’nolarini tushunishiga ishonadi. Hikoya davomida, shuningdek, *Thanksgiving* davrida saxovat va kam ta’minlanganlarga yordam berishning ijtimoiy kutilganligi haqidagi ishoralar ham uchraydi. Qariya jentlmenning har yili kam ta’minlangan bir kishini *Thanksgivingda* ovqatlantirish odati, ushbu bayramda ehtiyojmandlarga yordam berishning keng tarqalgan ijtimoiy an’anasini ifodalaydi, ayniqsa, minnatdorchilik va hamjihatlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan *Thanksgiving* kunida. Referensiya vositalari matndagi g‘oyalarni ortiqcha takrorlamasdan izchil ifodalashga xizmat qiladi.

*Ellipsis* matnda ilgari aytilgan ma’lumotni takrorlamasdan, grammatik birlikni tushirib qoldirish orqali ko‘rsatiladigan bog‘lanish vositasi bo‘lib, u adresatdan kontekst asosida ma’lumotni to‘ldirishni talab qiladi. Ellipsis odatda gap bo‘laklari yoki to‘liq gap darajasida bo‘lishi mumkin. Ushbu xususiyatiga ko‘ra verbal (fe‘l), nominal (ot) va clausal (gaping bir qismi) turlarga bo‘linadi. Masalan, “*You want these Idaho potatoes?*” “*Oh yes, that’ll be fine. Two of those.*” (Roald Dahl, “Lamb to the Slaughter”) Mazkur dialogda *those* birligi nominal ellipsisni ifodalab kelgan, yani *two of those (potatoes)* tushirib qoldirilgan. Ushbu misolda adresat tushirib qoldirilgan mazmuni osonlik bilan to‘ldira oladi, bu esa muloqotni ixcham va ravon qilishga yordam beradi, ayni paytda kogerensiyani ham ta’minlaydi.

Navbatdagi yana bir muhim grammatik kogeziya vosita – *substitutsiya (almashtirish)* bo‘lib, u biror til birlikning o‘rnini boshqa umumiy so‘z yoki ibora bilan almashtirish orqali kogeziya hosil qilinadi. U ham verbal, nominal va klozal turlarga bo‘linib, ko‘pincha *do, one, the same, so, such* kabi so‘zlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, *Jim looked at the chain admiringly. Della hoped he would do so* (O. Henry, “The Gift of the Magi”). Bu yerda *do so* konstruktsiyasi

oldingi fe'l guruhini takrorlamasdan saqlab kelgan. Substitutsiya takrorlashning oldini olish bilan birga, matnning stilistik ifodasini boyitadi va kogerensiyani ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kogezivlikka hissa qo'shadigan yana bir muhim grammatik vositalardan *bog'lovchilar (conjunctions)* bo'lib, ular gaplar, bo'laklar va matnning yirik segmentlarini o'zaro birlashtirish orqali mantiqiy izchillik va kogerensiyani ta'minlaydi. M.A.K.Xallidey va R.Hasan yuqorida bayon qilganimizdek, bog'lovchilarni to'rt asosiy turini *additive (qo'shimcha ma'lumot qo'shish)*, *adversative (qarama-qarshi munosabatni ko'rsatish)*, *causal (sabab-oqibatni bildiruvchi)* va *temporal (voqealar ketma-ketligini ifodalovchi)* qayd etishgan<sup>24</sup>. Ingliz badiiy diskursida, ayniqsa qisqa hikoyalarda, bog'lovchilar o'quvchini voqea rivoji, qarama-qarshiliklar, sabab-oqibat munosabatlari hamda vaqt yoki nuqtai nazardagi o'zgarishlarni kuzatishda yo'naltiradi. Ingliz badiiy diskursida, ayniqsa qisqa hikoyalarda bog'lovchilar voqealar rivoji, personajlararo munosabatlar va tematik izchillikni yaratishda asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. Ular orqali matnda sababiylik, qarama-qarshilik yoki emotsional holatlar aniq va tabiiy ifodalanadi.

Leksik kogeziv vositalar esa matndagi birliklar orasidagi semantik aloqani ta'minlovchi vositalar hisoblanib, ular orasida takror, sinonimiya, antonimiya, giponimiya, meronimiya va ayniqsa kollokatsiyalar muhim o'rin tutadi. Takror ma'no urg'usini oshirsa, sinonimiya va antonimiya stilistik boylik keltiradi. Masalan, *He was a painter... Behrman was a failure in art... this old artist had always dreamed of painting a masterpiece* (O. Henry, "The Last Leaf"). Mazkur fragmentda bir xil referent dastlab *painter*, keyinchalik *artist* leksemalari orqali ifodalanadi. Ushbu birliklar to'liq sinonim bo'lmasa-da, bir xil semantik maydonga mansub bo'lib, umumiy kasbiy identifikatsiyani bildiradi. Sinonimik qayta nominatsiya diskursda referensial uzluksizlikni saqlaydi, chunki o'quvchi ikkala leksemani bir xil referent bilan bog'laydi. Bunday leksik bog'lanish matn segmentlari o'rtasidagi semantik aloqani mustahkamlaydi va kogerentlikni ta'minlaydi.

Leksik kogeziv vositalar sifatida giponimiya va meronimiya ham diskursda semantik munosabatlar sifatida matnning yaxlitligi va izchilligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Giponimiya umumiy va xususiy atamalar orasidagi munosabatlar, meronimiya butun va uning qismlari o'rtasidagi bog'liqliklar hikoya doirasida ma'noiy aloqalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, *She carried the meat into the kitchen, placed it in a pan, turned the oven on high, and shoved it inside... ...She lifted it out, and looked at it... A leg of lamb* (Roald Dahl, "Lamb to the Slaughter"). Bu yerda umumiy kategoriya *meat* keyingi segmentda uning konkret realizatsiyasi *lamb* orqali aniqlashtiriladi. Muhim jihat shundaki, bu ikki birlik turli referentlarni emas, balki bitta obyektning turli darajadagi semantik ifodasini bildiradi. Diskursda semantik rivojlanish quyidagicha sodir bo'ladi, *general category (meat) → specific type (lamb) → concrete object (leg of lamb)*. Bu ierarxiya o'quvchi ongida referentni bosqichma-

---

<sup>24</sup> Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. – London: Longman, 1976. – P.238.

bosqich aniqlashtiradi. Dastlab *meat* umumiy, noaniq tushuncha sifatida qabul qilinadi. Keyingi segmentda esa *lamb* orqali bu tushuncha torayadi va aniq referent shakllanadi. Mazkur fragmentda giponimiya faqat leksik bog‘lanish emas, balki narrativ rivojlanish mexanizmi sifatida ham ishlaydi.

Keyingi misolda butun-qism munosabatli leksik kogeziyani ko‘rishimiz mumkin. Masalan, *The watch was his father's and his grandfather's. And now it was Jim's. And the next thing he knew, the chain was gone* (O. Henry, “The Gift of the Magi”). Mazkur fragmentda *watch* diskursning asosiy referenti sifatida kiritiladi, keyingi segmentda esa uning tarkibiy elementi *chain* tilga olinadi. Semantik ierarxiya *material object* → *personal possession* → *watch* → *chain* tarzida shakllangan. Bu yerda *chain* yangi referent sifatida emas, balki mavjud obyektning strukturaviy komponenti sifatida interpretatsiya qilinadi. Shu sababli diskursning referensial markazi o‘zgarmaydi. Ushbu jumlada meronimik bog‘lanish bir nechta funksiyalarni bajaradi: a) referensial aniqlashtirish – *chain* birlik *watch* obyektining ichki tuzilishini ochadi; b) semantik integratsiya – ikkala birlik bitta konseptual model tarkibida qabul qilinadi; c) interpretativ uzluksizlik – o‘quvchi yangi obyektini emas, balki mavjud obyektning qismi sifatida interpretatsiya qiladi. Shu tariqa, diskurs elementlari yagona semantik markaz asosida integratsiyalashib kogerentlikni yaratadi.

Tadqiqot davomida bir nechta vositalarning ham bir kontekstdagi voqelanishi ingliz badiiy diskursida leksik kogeziyaning murakkab integratsiyasini namoyon etadi. Bunday qo‘shma qo‘llanish strategiyasi matnni faqatgina semantik bog‘lanish darajasida emas, balki ko‘p qatlamli diskursiy tizim sifatida ham boyitadi.

Masalan: *Mary was in shock, a state of astonishment that turned into calm determination. The dinner – lamb, peas and potatoes – was set neatly, every plate and fork in place. Yet the scene swung between life and death, warmth and coldness, love and betrayal.* (Roald Dahl, “Lamb to the Slaughter”). *Shock* – *astonishment* sinonimlari qahramonning psixologik holatini ifodalashda turli intensiv darajalarini ko‘rsatadi. *Shock* keskin zarbani, *astonishment* esa hayrat va taajjubning yumshoqroq, ammo baribir kuchli darajasini bildiradi. Shu orqali adresant sinonimlardan foydalanib, voqeaning emotsional kuchini bosqichma-bosqich kuchaytiradi. *Life – death, warmth – coldness, love – betrayal* antonim juftliklari esa voqeadagi dramatik burilish va yashirin ziddiyatlarni ochib beradi. Ular qotillik, ruhiy iztirob va ijtimoiy-psixologik kontrastni semantik darajada aniq ifodalab, hikoyaning dramatik ohangini mustahkamlaydi. *Lamb, peas, potatoes – dinner* giponimik qatori ovqat elementlarini umumiy kategoriya ostida birlashtirib, matnda tematik yaxlitlikni hosil qiladi. Bu sanash oddiy uy sahnasini ko‘rsatib, voqeaga kundaliklik va realistik tus beradi. *Plate – fork – table – dinner scene* meronimik munosabatlari esa qism-butun struktura orqali voqeaning makoniy tasvirini mustahkamlaydi. Detallarning ketma-ket berilishi oddiy oilaviy muhitni vizual tarzda boyitib, dramatik voqeaga kontrastli fon yaratadi. Ushbu murakkab leksik tarmoqni idrok etar ekan, voqeani ko‘p qirrali darajalarda anglash imkonini yaratadi. Ingliz badiiy diskursida bunday integratsiyalashgan ko‘p qatlamli bog‘lanishlar kogerensiyani har yuqori darajada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kollokatsiyalar esa doimiy leksik juftliklar orqali matnga tabiiylik va kontekstual uyg'unlik bag'ishlaydi. Masalan: *make a decision, strong tea, heavy rain* kabi birikmalar ingliz badiiy diskursida tez-tez uchraydi. Qisqa hikoyalarda kollokatsiyalar personajlarning ruhiy holatini, ijtimoiy fonni va ironik vaziyatlarni ifodalashda ko'p qo'llaniladi. Masalan, *She took his coat and hung it in the closet. Then she walked over and **made the drinks**, a strong one for him, a weak one for herself... he lifted the glass... the ice cubes tinkled... he **finished the drink** quickly and **poured himself another*** (Roald Dahl, "Lamb to the Slaughter"). *Drink* konsepti atrofida shakllangan leksik kollokatsion birliklar kundalik turmush ssenariysini hosil qiladi. *Make, pour, finish* fe'llari ichimlik iste'mol qilish bilan bog'liq tipik harakatlar ketma-ketligini ifodalaydi. Ushbu birliklar leksik maydon birligini ta'minlab, diskursda vaziyatning tabiiyligini kuchaytiradi. Aynan shu normallik keyinchalik buzilgani sababli hikoyadagi dramatik burilish yanada kuchliroq seziladi. Kollokatsiya nafaqat kogeziya, balki pragmatik kontrast orqali kogerentlikni ham mustahkamlaydi desak bo'ladi.

Keyingi misol ma'lum semantik doirada cheklangan kombinatsiya, *The cold breath of autumn had stricken its leaves from the vine... skeleton bare branches clung to the crumbling bricks* (O. Henry, "The Last Leaf"). *Restricted collocations* muayyan semantik maydon bilan bog'langan hisoblanib, ularning komponentlari cheklangan kombinatsiyalarda uchraydi. Ushbu misolda, *bare branches* yoki *fallen leaves* birliklari fasl o'zgarishi bilan bog'liq tasviriy kollokatsiyalar sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu birliklar kuz fasli konseptual modelini hosil qiladi. M.A.K. Xallidey va R.Hasan yondashuvida bunday kollokatsiyalar semantik yaqinlik orqali matnning tematik yaxlitligini ta'minlaydi. Adresat kuz manzarasini alohida tasvirlar yig'indisi sifatida emas, balki yagona situatsion fon sifatida qabul qiladi.

Xulosa qilib aytganda, grammatik va leksik kogeziy vositalar matnning strukturaviy yaxlitligini, semantik izchilligini va stilistik mukammalligini ta'minlaydi. Ingliz badiiy diskursida ushbu vositalarning funksional tahlili matn kogerensiyasini chuqurroq anglash, shuningdek, muallifning uslubiy yondashuvi va kommunikativ strategiyasini tahlil qilish imkonini beradi. Mualliflarning badiiy matnlarida bu vositalarning keng qo'llanilishi matnning nafaqat lingvistik, balki mantiqiy yaxlitligi hamda kogerentligini ham shakllantiradi.

Uchinchi bob "**Ingliz badiiy diskursida kogeziya va kogerensiyaning pragmatik tadqiqi**" deb nomlanadi. Unda pragmatik yondashuvda kogerensiya, kontekst va uning talqin bilan bog'liqligi, diskurs markerlar, deiktik birliklar, implikatura, presuppozitsiya va nutq aktlari kabi pragmatik vositalarning kogerensiyaga ta'siri masalasi muhokama qilingan.

Bu borada bir qator olimlarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Herbert Pol Graysning muloqot maksimalari va implikatura nazariyasi, ayniqsa, yashirin ma'no va matn izchilligi tushunchalarini tahlil qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. J.Syorl va J.L.Ostin "Speech act theory" orqali matndagi gaplar ortidagi illokutsion maqsadlarni aniqlash orqali kogerensiyani tushuntiradi. Debora Shiffrin "Discourse markers" asarida diskurs markerlar (masalan, *so, because, and, but*) matnning mantiqiy oqimida ulkan ahamiyat kasb etishi haqida to'xtalib o'tgan. Bryus Frayzer diskurs markerlarining

funksional turlarini ajratib bergan holda, ularning gaplararo semantik va pragmatik bog‘liqlikni ta‘minlovchi vosita sifatidagi rolini aniqlagan. U “Discourse markers” tushunchasini ilmiy muomalaga olib kirgan asosiy olimlardan hisoblanadi. Den Sperber va Diedre Uilson “Relevance Theory” orqali kontekstga mos axborot tanlovi va interpretatsiyasining kogerensiyadagi o‘rnini izohlaydi. Stefen Levinson tomonidan ishlab chiqilgan pragmatik nazariyada muloqot jarayonida yashirin ma‘no, implikatura, presuppozitsiya va kontekstning matn kogerensiyasidagi o‘rnini izohlaydi. U Grays ishlanmalarini chuqurlashtirib, konversatsion struktura va ijtimoiy kontekst doirasida matnning qanday izchil tuzilishini ko‘rsatadi<sup>25</sup>.

Ingliz badiiy diskursida mazmuniy izchillikni ta‘minlash nafaqat grammatik va leksik vositalar orqali, balki kontekst, nutq holati va muloqotga xos pragmatik vositalar orqali ham yuzaga chiqadi. Pragmatik yondashuv kogerensiyani o‘rganishda adresant va adresatning o‘zaro anglashuvi, ijtimoiy munosabatlari, kontekstual sharoit va nutqning maqsadiga asoslanadi. Ayniqsa, ingliz badiiy adabiyotida, xususan, qisqa hikoyalarda diskursning chuqur pragmatik qatlamlari personajlararo munosabatlar, voqea rivoji va dramatik keskinlikni anglashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu bo‘limda kogerensiyani ta‘minlovchi asosiy pragmatik vositalar: diskurs markerlar, deiktik birliklar, implikatura, presuppozitsiya va nutq aktlari tahlilga tortilgan.

Diskurs markerlar (discourse markers) nutqdagi gaplar, g‘oyalar va kontekstlar o‘rtasidagi semantik, mantiqiy yoki temporal bog‘liqlikni ko‘rsatib beruvchi birliklar hisoblanadi. Ular matndagi axborotlar oqimini boshqarish, voqealar o‘rtasidagi sababiy yoki kontrast munosabatlarni bildirish, shuningdek, adresatning e‘tiborini kerakli nuqtaga yo‘naltirish funksiyalarini bajaradi. D.Shiffrinning tasnifiga ko‘ra, eng ko‘p uchraydigan *and, but, or, so, because, now, then, well, I mean, you know* kabi diskurs markerlarni pragmatik darajadagi asosiy ko‘rsatkichlar sifatida tavsiflab, ularni beshta diskursiy “plane” bo‘yicha tahlil qiladi, ular: *ideational, actional, exchange structure, information state* va *participation framework*<sup>26</sup>.

Masalan, “*Hullo Sam,*” *she said brightly.*

“*Good evening, Mrs. Maloney. How’re you?*”

“*I want some potatoes please, Sam. Yes, and I think a can of peas.*”

“*Anything else?*” *the grocer asked.*

“*Well – what would you suggest, Sam?*”

“*How about a nice big slice of cheesecake?*”

“*Perfect,*” *she said.* (Roald Dahl, “Lamb to the Slaughter”). Mazkur fragmentda bir nechta diskurs markerlar bir vaqtning o‘zida turli pragmatik

---

<sup>25</sup> Grice H.P. Logic and Conversation. In: Cole, P., & Morgan, J. (Eds.), Syntax and Semantics, Vol. 3: Speech Acts, New York: Academic Press, 1975. – P. 41-58; Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 168 p; Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p; Schiffrin D. Discourse markers. – Cambridge, UK: Cambridge University Press, 1987. – 342 p; Fraser, B. What are Discourse Markers? *Journal of Pragmatics*, 31(7), 1999. – P.931-952; Sperber D., Wilson D. Relevance: Communication and Cognition (2nd ed.). Oxford: Blackwell Publishing, 1986. – 380 p; Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p;

<sup>26</sup> Schiffrin D. Discourse markers. – Cambridge, UK: Cambridge University Press, 1987. – 342 p;

qatlamlarda faoliyat ko‘rsatib, dialogning ko‘p darajali kogerentligini ta‘minlashini ko‘ramiz. *Mazmuniy qatlam* darajasida *and* markeri qo‘shimcha axborotni kiritib, propositsiyalar o‘rtasida semantik bog‘lanish hosil qiladi. *Muloqot almashinuv qatlami* nuqtai nazaridan *well* javobni yumshoq boshlash orqali replika almashinuvi jarayonini tartibga soladi. *Nutqiy harakat qatlami* darajasida *how about* taklif nutq aktini shakllantirib, kommunikativ harakatni yo‘naltiradi. *Ishtirokchilar tuzilmasi qatlamida* esa *well* adresant va adresat o‘rtasidagi ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. *Umumiy bilim maydoni* nuqtai nazaridan *yes* yangi axborotning qabul qilinganini bildiradi. Shiffrin yondashuviga ko‘ra bunday ko‘p qatlamli markerlar diskursni yagona kommunikativ tizimga birlashtiradi. Adresat dialogni o‘zaro bog‘langan nutq harakatlari tizimi sifatida qabul qilib, pragmatik kogerentlik kompleks tarzda yuzaga keladi.

Pragmatik yondashuvda kogerensiyani ta‘minlovchi vositalardan biri sifatida *deiktik birliklar* ham muhim ahamiyat kasb etadi. S. Levinson ularni pragmatikaning markaziy kategoriyalaridan biri deb baholab, besh asosiy turini – *shaxs (personal)*, *zamon (temporal)*, *makon (spatial)*, *diskurs (discourse)* va *ijtimoiy (social)* ajratib ko‘rsatadi<sup>27</sup>.

Masalan, “*My aunt will be down presently, Mr. Nuttel,*” said the young lady; “*in the meantime you must try and put up with me.*” (Saki, “The Open Window”). Mazkur fragmentda bir nechta deiktik birliklar nutq vaziyatining ko‘p koordinatali modelini yaratadi. *Personal deixis (you, me)* adresant va adresat o‘rtasidagi kommunikativ rollarni aniqlaydi. *Temporal deixis (presently, meantime)* voqea vaqtini nutq momentiga nisbatan tartiblaydi. *Spatial deixis (down)* harakat yo‘nalishini ko‘rsatib, makon modelini shakllantiradi. *Social deixis (Mr., aunt)* ijtimoiy munosabatni aniqlaydi. Levinson nazariyasida bunday ko‘p komponentli deiktik tizim interpretativ noaniqlikni kamaytiradi. Adresat ushbu birliklar yordamida nutq vaziyatini kompleks model sifatida qabul qiladi. Natijada diskursda referensial, temporal va ijtimoiy parametrlar o‘zaro uyg‘unlashib, pragmatik kogerentlik yuzaga keladi.

Pragmatik nuqtayi nazardan, kogerensiya yashirin ma‘no aloqalari orqali ham shakllanadi. Ana shunday yashirin ma‘no aloqalarini anglashda implikatura asosiy rol o‘ynaydi, “*what is meant often goes beyond what is said*”, ya‘ni nutqda aytilgan narsa ko‘pincha ifoda etilganidan ko‘proq ma‘noni o‘z ichiga oladi deb aytib o‘tilgan<sup>28</sup>. Shu tariqa implikatura matnning yuzaki mazmuni bilan uning kontekstual va kommunikativ maqsadi o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi, natijada matnning kogerensiyasi ta‘minlanadi.

H.P. Graysning “Logic and Conversation” asarida “Cooperative Principle” va “Conversational Maxims” tushunchalarini ishlab chiqib, muloqot jarayonida suhbatdoshlar o‘zaro tushunishni ta‘minlash uchun ma‘lum qoidalarga rioya qilishlari va ushbu qoidalar buzilganda yashirin ma‘no, ya‘ni *implikatura* paydo bo‘lishini ta‘kidlagan. *Konversatsion implikatura* tushunchasi *hamkorlik prinsipi (Cooperative Principle)* va to‘rtta muloqot maksimalari – *miqdor (Quantity)*, *sifat*

<sup>27</sup> Levinson S.C. *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p;

<sup>28</sup> Grice H.P. *Logic and Conversation*. In: Cole, P., & Morgan, J. (Eds.), *Syntax and Semantics*, Vol. 3: *Speech Acts*, New York: Academic Press, 1975. – P. 41.

(*Quality*), *moslik (Relevance)* va *aniqlik (Manner)* asosida izohlaydi<sup>29</sup>. Bu maksimalar suhbatdoshlarning o‘zaro tushunishini, axborotning yetarliligini va muloqotning mantiqiy izchilligini ta‘minlaydi. Masalan, agar adresant yoki personaj ushbu maksimalardan birini ataylab buzsa, u holda adresat ushbu “buzilish”dan yashirin ma‘noni, ya‘ni implikaturani hosil qiladi. Shu jarayon badiiy diskursning kogerensiyasini kuchaytiradi, chunki adresat matnning chuqur qatlamlarini talqin qilishga jalb etiladi. Ingliz badiiy diskursida ushbu hodisa ayniqsa sezilarli, masalan, “*I’ll get the supper,*” *she said.*

“*Sit down,*” *he said.* (Roald Dahl, “Lamb to the Slaughter”). Patrikning javobi semantik jihatdan bevosita taklifga mos kelmaydi. Graysga ko‘ra relevansiya buzilgandek ko‘rinsa ham, adresat yashirin ma‘noni anglashga harakat qiladi. Patrik suhbatni nazorat qilishga intiladi va muhim suhbat boshlanishini signal qiladi. Adresat nutqni literal emas, balki pragmatik signal sifatida interpretatsiya qiladi. Natijada dialogning ichki mantiqiy bog‘lanishi saqlanadi. Relevansiya maksimasi yuzaki buzilishi dramatik keskinlikni oshiradi va diskurs kogerentligini implikatura orqali mustahkamlaydi.

Pragmatik tahlilda implikatura va presuppozitsiya bir-biriga yaqin, ammo mohiyat jihatidan farqli tushunchalar hisoblanadi. Yuqorida ko‘rganimizdek, implikatura adresant tomonidan ataylab yuzaga keltirilgan yashirin ma‘no, u suhbatdoshning mantiqiy xulosasi orqali ochiladi. Presuppozitsiya esa, aksincha, gapning o‘z tuzilishiga singib ketgan, muloqot ishtirokchilari uchun allaqachon ma‘lum deb qabul qilingan ma‘lumotni bildiradi. Agar implikatura o‘quvchini matnning aytilmagan ma‘nosini anglashga undasa, presuppozitsiya uni aytilgan ma‘noning ortidagi yashirin taxminni aniqlashga yo‘naltiradi. Shu bois, presuppozitsiya adresat tafakkurida “haqiqatning fonini” yaratadi, ya‘ni kogerensiyani semantik barqarorlik orqali mustahkamlaydi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bir qator olimlar presuppozitsiyani gapning semantik tuzilmasida yashirin, ammo muloqotda haqiqat sifatida qabul qilinadigan ma‘no qatlamlari sifatida izohlab, uning besh asosiy turini ajratishgan – *egzistensial (existential presupposition)*, *faktik (factive presupposition)*, *leksik (lexical presupposition)*, *strukturaviy (structural presupposition)*, *kontrfaktual (counterfactual presupposition)*<sup>30</sup> va ularning har biri muloqotdagi kogerensiyani turli darajalarda ta‘minlashini ko‘rsatadi. Masalan, *She looked at herself in the glass again* (O. Henry, “The Gift of the Magi”). Ushbu jumladagi *again* leksik presuppozitsion birligi harakatning takror sodir bo‘layotganini presuppozitsiya qiladi. Della oynaga yana qarashi uning tashqi ko‘rinishini avval ham tekshirganini anglatadi. Adresat oldingi diskurs segmentiga murojaat qilishga undalgan. Shu tarzda matnda vaqt davomiyligi va psixologik jarayon o‘rtasida bog‘lanish hosil bo‘ladi. Harakatning takrorlanishi qahramonning ichki ikkilanishini ko‘rsatadi va natijada diskursda temporal kogerentlik shakllanadi.

---

<sup>29</sup> Grice H.P. *Logic and Conversation*. In: Cole, P., & Morgan, J. (Eds.), *Syntax and Semantics*, Vol. 3: *Speech Acts*, New York: Academic Press, 1975. – P. 43.

<sup>30</sup> Levinson S.C. *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P.167; Yule G. *Pragmatics*. – Oxford: Oxford University Press. Chapter 4, *Presupposition and Entailment*. – P. 25.

Ingliz badiiy diskursini tahlil qilishda nutq aktlari nazariyasi matnning chuqur kommunikativ qatlamini ochib beruvchi muhim pragmatik vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. J.L.Ostin tomonidan ilgari surilgan va J.Syorl tomonidan tizimlashtirilgan bu nazariya shundan dalolat beradiki, har qanday so'zlovchi nafaqat ma'no bildiradi, balki u orqali maqsadli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni so'z bilan amal bajaradi. Ingliz badiiy diskursida esa bu amal estetik va emotsional shaklda amalga oshadi. Personajning so'zi orqali u o'z ichki kechinmalarini, niyatini, yoki ijtimoiy pozitsiyasini namoyon etadi. Shu tariqa, nutq aktlari kogerensiya, ya'ni matnning ichki mantiqiy va kommunikativ yaxlitligini ta'minlashda markaziy o'rin tutadi.

Ingliz badiiy diskursidagi kogerensiya personajlarning o'zaro nutqiy aloqasi orqali ham shakllanishini ko'rdik. Har bir dialog, har bir nutq akti – iltimos, buyruq, iltifot, rad yoki tanbeh o'zidan oldingi va keyingi replikalar bilan sabab-oqibat munosabatida bo'ladi. Illokutiv kuch (adresantning maqsadi) va perlokutiv ta'sir (adresatga yetgan ta'sir) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik badiiy matnning mantiqiy oqimini va mazmuniy birligini mustahkamlaydi<sup>31</sup>. Jon R. Syorl esa J.L.Ostinning nazariyasini kengaytiradi va illokutiv aktlarni markazga qo'ygan holda, ularni funksional jihatdan besh toifaga ajratadi:

1. *Assertives* – gapiruvchining haqiqatga bo'lgan ishonchini ifodalaydi.
2. *Directives* – tinglovchiga biror harakatni bajarishni buyuradi yoki maslahat beradi.
3. *Commissives* – gapiruvchi o'zini kelajakdagi harakatga bog'laydi (va'da, majburiyat).
4. *Expressives* – his-tuyg'ular va munosabatni ifodalaydi.
5. *Declarations* – til orqali muayyan ijtimoiy holatni o'zgartiradi (sud qarorlari, ishdan bo'shatish va hokazo)<sup>32</sup>.

Illokutsion aktning chuqurlashtirib, til harakati turi va maqsadiga qarab turlarga ajratilgani kogerensiya tahliliga aniqlik keltiradi. Masalan, "*My hair grows so fast, Jim!*" she cried. "*Don't look at me that way,*" she said. "*I had it cut off and sold it.*" (O. Henry, "The Gift of the Magi"). Mazkur fragmentda nutq aktlari kombinatsiyasi diskursning dramatik markazini tashkil qilishini ko'rishimiz mumkin. Assertiv akt faktual ma'lumot berib, voqeaning sababiy asosini aniqlagan; ekspressiv akt qahramonning psixologik holatini ochib bergan; direktiv akt esa adresatning baholovchi reaksiyasini cheklashga qaratilgan. Syorl nazariyasida bunday kombinatsiya kommunikativ niyatni to'liqroq ifodalaydi. Adresat nutq aktlarini integrativ tarzda interpretatsiya qilib, diskursda sababiy, affektiv va interaksion kogerentlik birgalikda shakllanadi.

Pragmatik vositalar ingliz badiiy diskursining mazmunan izchil va semantik jihatdan yaxlit shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Ingliz badiiy diskursida ushbu vositalar yordamida personajlar orasidagi muloqot, ichki kechinmalar va ijtimoiy-psixologik kontekst o'quvchiga aniq yetkaziladi. Pragmatik yondashuv orqali matn kontekstual darajada tahlil qilinadi va shu asosda chuqur kogerensiya

---

<sup>31</sup> Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 168 p;

<sup>32</sup> Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.

hosil bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida matnni nafaqat tushunarli, balki ta’sirchan qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Ingliz badiiy diskursida kogeziya va kogerensiyaning kognitiv voqelanishi**” deb nomlangan bo‘lib, unda kognitiv yondashuv va o‘quvchining kognitiv modeli, kognitiv skriptlar, sxemalar va tafakkur modelining diskurs talqinidagi o‘rni, resipient tomonidan kogerensiyaning shakllanishi, taxminlar, mantiqiy bog‘lanishlar, kontekstual tafakkur kabi masalalar tahlilga tortilgan.

Kognitiv tilshunoslikda kogerensiya resipientning ongida shakllanuvchi mental model va freymlar orqali yuzaga keladi. Bu yo‘nalishda quyidagi olimlarning ishlari dolzarb hisoblanadi. Tyun A. fan Dayk mental model va situational model tushunchalari matnni qabul qilish jarayonida bilim fondi va tafakkurning rolini tushuntiradi. Uolter Kintch “Construction-Integration Model” orqali o‘quvchining matndan ma’no hosil qilish mexanizmini tahlil qiladi. Rojer Shenk va Robert Abelson “Script theory” orqali resipientning tajriba asosidagi kutishlari va matnni konstruktiv qabul qilishi jarayonini tushuntiradi. Jorj Lakoff va Mark Jonson kognitiv metafora nazariyasi orqali badiiy matnlarda tushuncha va fikrlarning qanday uslubiy va semantik bog‘liqlikda ifodalanishini ko‘rsatadi. Jillian Braun va Jorj Yul o‘zlarining “Discourse Analysis” asarida kogerensiya va kogeziyani nutq va yozma matnlar doirasida resipientning matnni qanday idrok etishi asosida mantiqiy bog‘liqlik hosil qilinishi haqida asosli tahlillar bergan<sup>33</sup>.

Zamonaviy matn lingvistikasi va diskurs tahlilida kognitiv yondashuv alohida o‘rin egallaydi. Bu yondashuvga ko‘ra, matnni tushunish va anglash jarayoni nafaqat til birliklari, balki inson tafakkuridagi bilimlar tuzilmasi va ongdagi model asosida amalga oshadi. Kognitiv lingvistika vakillari J.Lakof, R.Langaker, Ch.Fillmor, J.Fokonye, M.Tyorner, L.Talmi, fan Dayk, R.Shenk, R.Abelson, J.Braun va J.Yul va boshqalar matn mazmunining izchilligi va bog‘liqligi, ya’ni kogeziya va kogerensiya inson ongida mavjud bo‘lgan bilim strukturalari orqali shakllanishini ilmiy asosda ta’kidlaydilar<sup>34</sup>. Matn faqat til birliklari yig‘indisi emas, balki inson ongidagi bilimlar tizimi, tajriba va voqelikni idrok qilishning shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Matnni kogerent va kogeziylik jihatidan tahlil qilishda inson ongida mavjud bo‘lgan freym, skript, ssenariy, sxema, mental model

---

<sup>33</sup> Teun A. van Dijk. Macrostructures: An Interdisciplinary Study of Global Structures in Discourse, Interaction, and Cognition. – Hillsdale, NJ, USA: Lawrence Erlbaum Associates, 1980. – P. 85-129; Kintsch W. The Role of Knowledge in Discourse Comprehension: A Construction-Integration Model. Psychological Review, 95(2), 1988. – P. 163-182; Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p; Schank R.C., Abelson R.P. Scripts, Plans, Goals, and Understanding: An Inquiry into Human Knowledge Structures. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1977. – 248 p; Brown G., Yule G. Discourse Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 288 p.

<sup>34</sup> Fillmore C.J. Frame semantics. In Linguistic Society of Korea (Ed.), Linguistics in the morning calm Seoul: Hanshin Publishing Co, 1982. – P. 111-137; Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p; Langacker R.W. Foundations of cognitive grammar: Volume I, Theoretical prerequisites. – Stanford: Stanford University Press, 1987. – 516 p; Fauconnier G., Turner M. The way we think: Conceptual blending and the mind’s hidden complexities. – New York: Basic Books, 2002. – 464 p; Schank R.C., Abelson R.P. Scripts, Plans, Goals, and Understanding: An Inquiry into Human Knowledge Structures. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1977. – 248 p; Brown G, Yule G. Discourse Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 288 p.

va inferensiya kabi bilim strukturasi va tafakkur mexanizmlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu bobdagi lingvokognitiv tahlillar J.Braun va J.Yul nazariyasi asosida olib borildi.

J.Braun va J.Yul diskurs kogerensiyasini talqin jarayoni sifatida izohlaydilar. Ularning fikricha, resipient matnning izchilligini avvaldan mavjud bilimlar tizimi, yani freymlar, skriptlar, ssenariylar orqali ta'minlaydi. Diskurs nafaqat grammatik birliklar majmuasi, balki ma'no yaratish va talqin qilish jarayoni sifatida talqin etishgan. Ularning nazariyasiga ko'ra, kogerensiya matnning o'zida kodlangan belgi bo'lmay, resipientning ongida shakllanadigan interpretativ jarayon hisoblanadi<sup>35</sup>.

*Freyms* inson ongidagi muayyan hodisa yoki tushunchaga oid bilimlar to'plami sifatidagi kognitiv tuzilma bo'lib, matn mazmunini tushunishda kontekstual asos yaratadi. Freymlar orqali resipient matn voqealarini ongida mavjud bo'lgan bilimlar bilan solishtiradi va matnni kogerent holatda qabul qiladi. Masalan: O. Henrining "Two Thanksgiving Day Gentlemen" hikoyasi *Thanksgiving* freymi atrofida qurilgan. Ushbu freym o'quvchi ongida *generosity, gratitude, tradition* (ehson, minnatdorlik, an'ana) kabi slotlar madaniy bilimlarni faollashtiradi. Hikoyaning dastlabki qismida resipient ushbu freymga asoslanib, xayriya va saxovatli an'anani kutadi. An'ana ijtimoiy burchga, saxovat esa azobga aylanadi. Shu tarzda, resipient ilgari shakllangan freymni qayta talqin etishga majbur bo'ladi. Bu holat J.Braun va J.Yulning "coherence as interpretation" tamoyiliga to'liq mos keladi, ya'ni kogerensiya sender tomonidan berilmaydi, balki resipientning talqin faoliyati natijasida yuzaga keladi.

Keyingi *skript* tushunchasi R.Shenk va R.Abelson tomonidan ularning mashhur "Scripts, Plans, Goals and Understanding" asarida ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u hodisalar ketma-ketligining inson ongida shakllangan stereotipik kognitiv modelini anglatadi. Agar freym muayyan vaziyatga oid statik bilimlar majmuasini ifodalasa, skript shu vaziyat doirasida odatda sodir bo'ladigan harakatlarning vaqt ketma-ketligini ifodalaydi.

J.Braun va J.Yul "Discourse Analysis" asarida skriptlarni tinglovchi va o'quvchi diskursni anglash jarayonida faol qo'llaydigan kognitiv resurslar sifatida talqin qiladilar<sup>36</sup>. J.Braun va J.Yul talqiniga ko'ra, skriptlar insonning muayyan vaziyatda "keyingi bosqichda odatda nima sodir bo'lishi"ni oldindan taxmin qilish imkonini beruvchi kognitiv andozalardir. Ular resipientning mavjud bilimlar bazasi hamda madaniy tajribasi bilan uyg'un holda ishlaydi va diskursni idrok etish jarayonida ma'no uzviyligini saqlashga xizmat qiladi. Shu bois, diskursni anglash jarayonida resipient har bir yangi ma'lumotni o'z ongida allaqachon shakllangan skriptlar tizimiga moslashtiradi, voqealar ketma-ketligini shu asosda rekonstruksiya qiladi va shu orqali kogerensiyani kognitiv darajada ta'minlaydi.

Masalan, "The Open Window" hikoyasida *polite social visit* (*mehmondorchilik va suhbat*) skripti asosiy kognitiv tayanch sifatida ishlaydi. Resipient bu holatni *greetings – talking – politeness – farewell* (*tanishuv – suhbat*

---

<sup>35</sup> Brown G., Yule G. Discourse Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P.233.

<sup>36</sup> Brown G., Yule G. Discourse Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P.241.

– *xushmuomalalik – xayrlashuv*) ketma-ketligi bilan bog‘laydi. Vera ismli qahramon esa aynan shu madaniy skriptni manipulyatsiya qiladi. U mehmondorchilik jarayonida yolg‘on hikoya to‘qib, tinglovchini chalg‘itadi. Resipient hikoyaning o‘rtalarigacha bu suhbatni odatdagi skript asosida talqin qiladi, biroq oxirida bu kutilmagan burilish bilan psixologik inkogerensiyaga duch keladi. Shu paytda ongda yangi skript – *firib va hazil* ssenariysi faollashadi. J.Braun va J.Yul bu jarayonda kogerensiyaning dinamik tabiatini ko‘rsatadi, yani resipient har bir yangi ma‘lumotni faol ravishda mavjud skript bilan solishtirib, nomuvofiqlik yuzaga kelganda talqinni yangilaydi. Adresantda aynan shu talqin harakatchanligi badiiy ironiyani yaratadi va matnni resipient tafakkurida yaxlitlashtiradi.

*Ssenariy* tushunchasi *skript*dan farqli ravishda vaqtga bog‘liq va istiqbolga yo‘naltirilgan kognitiv model sifatida tavsiflanadi. Agar skript “odatdagi ketma-ketlik” sifatida aks ettirsa, ssenariy hodisalarning ma‘lum sharoitda qanday rivojlanishi mumkinligini oldindan modellashtiruvchi mini-narrativ sifatida talqin qilinadi. J.Braun va J.Yul nazariyasida ssenariylar diskursdagi kognitiv prognozlash mexanizmini tashkil etadi. Resipient har bir yangi gapni avvalgi kontekst asosida talqin qiladi, natija kutilgan ssenariyga mos kelsa kogerensiya mustahkamlanadi, mos kelmasa ssenariy qayta quriladi.

Masalan, *The old ivy vine clung to the bricks of the wall. One leaf still clung to its stem* (O Henry, “The Last Leaf”). Ushbu hikoya boshida resipient ongida *kasallik va o‘lim kutish ssenariysi* faollashadi: *cold weather, illness, fallen leaves* (*sovuq havo, kasallik, so‘nayotgan barglar*) – bularning barchasi “o‘lim yaqin” degan ssenariyni uyg‘otadi. Ammo Bo‘rman tomonidan devorga chizilgan so‘nggi barg voqealar yo‘nalishini keskin o‘zgartiradi. Resipient yangi ma‘lumotni qabul qilarkan, avvalgi ssenariyni yangilaydi – endi “o‘lim” emas, balki “umid va fidoyilik” ssenariysi dominant bo‘ladi. Bu jarayon J.Braun va J.Yul bo‘yicha interpretiv kogerensiya mexanizmini aniq ifodalaydi. Matn izchilligi formal bog‘lovchilar orqali emas, balki resipientning ssenariyni yangilash va qayta tashkil etish faoliyati orqali yuzaga chiqadi. Sender shu tarzda resipientni kognitiv hamkorlikka jalb etib, har bir yangi voqeani o‘z ongidagi ssenariy bilan solishtirib, ma‘noni qayta quradi. Natijada hikoyada kogerensiya ta‘minlanadi.

Ingliz badiiy diskursida kognitiv nuqtai nazardan kogerensiyaning shakllanishi nafaqat freym, skript va ssenariylar orqali amalga oshadi, balki resipientning kognitiv tajribasi va avvaldan mavjud bilim tuzilmalari, ya‘ni *sxemalarning* faoliyati bilan ham belgilanadi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, J.Braun va J.Yul nazariyasiga ko‘ra, kogerensiya resipient tomonidan yaratiladigan interpretiv jarayondir. Shu nuqtai nazardan, sxemalar ham diskursni anglashda asosiy kognitiv tayanch sifatida namoyon bo‘ladi.

*Sxema* inson ongida mavjud bo‘lgan tartibga solingan bilim modeli sifatida talqin qilinib, u ilgari o‘zlashtirilgan tajriba, madaniy normalar va ijtimoiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Tilshunoslik va diskurs tahlilida rivojlantirilgan ushbu tushuncha shuni ko‘rsatadiki, inson yangi ma‘lumotni tushunish jarayonida

uni avvalgi tajriba bilan assotsiativ tarzda bog‘laydi<sup>37</sup>. Shu bois, sxemalar badiiy matnni idrok etishda ma’no yaratishning asosiy kognitiv mexanizmi sifatida ishlaydi.

Masalan, *Every Thanksgiving Day for nine years the Old Gentleman had found his way to that same corner* (O. Henry, “Two Thanksgiving Day Gentlemen”). Ushbu satr resipient ongida *Thanksgiving tradition schemani* ishga solidi, ya’ni minnatdorlik, marhamat, xayriya, ijtimoiy birdamlik kabi. Shu asosda o‘quvchi odatiy marosimdagi iliqlikni kutadi. Ammo muallif bu sxemani mazmuniy burilish asosida ishlatadi: bayram endi quvonch emas, balki majburiyat, odatga aylangan ijtimoiy yuk sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tarzda, resipient avvalgi madaniy sxemani *social burden schema* bilan almashtiradi va diskursni axloqiy-psixologik asosda talqin qiladi. Bu jarayon J.Braun va J.Yul tomonidan tavsiflangan *reader-based coherencing* yaqqol ko‘rinishidir: matn o‘z-o‘zidan izchil emas, balki resipient tomonidan ma’noni qayta tashkil etish orqali kogerentlik kasb etadi.

J.Braun va J.Yul nazariyasiga ko‘ra, kogerensiya ta’minotidagi keyingi kognitiv vosita *mental model* hisoblanadi. Mental model matnni anglash jarayonida o‘quvchi ongida shakllanadigan aqliy tasvirni anglatadi. Ushbu model resipientning matndagi ma’lumotlarni dekodlash emas, balki ularni ongda jonli vaziyat sifatida simulyatsiya qilish jarayonini ifodalaydi. J.Braun va J.Yul kogerensiyani matnning o‘zida emas, balki resipient tafakkurida yaratiladigan interpretiv tizim sifatida talqin etgan edi<sup>38</sup>. Resipient badiiy matnga duch kelganida *freym* orqali umumiy kontekstni faollashtiradi (masalan, joy, davr, ijtimoiy sharoit); *skript* asosida voqealar ketma-ketligini taxmin qiladi; *ssenariy* orqali hodisalarning rivoj yo‘nalishini tasavvur qiladi; *sxema* yordamida bu barcha elementlarni o‘z madaniy bilimlari bilan bog‘laydi hamda shu integratsiya asosida *mental model*, ya’ni ongdagi dinamik, vizual-situativ tasvir shakllanadi. Shu tarzda, freym, skript, ssenariy va sxemalar mental modelning tuzilma asosini tashkil etadi. Mental model bularning barchasini birlashtirib, kogerensiyani resipient tafakkurida yaxlit tizim sifatida shakllantirishga xizmat qiladi

Masalan, “The Gift of the Magi” hikoyasida dastlab resipient ongida *romantic sacrifice model* shakllanadi: *sevgi, fidoyilik, sovg‘a orqali mehrni ifodalash*. Bu model freym sifatida *Christmas gift-giving frameni*, skript sifatida *esa buy → wrap → exchange → rejoice* ketma-ketligini ishga soladi. Ammo hikoya yakunida kutilgan ssenariy teskari buriladi. Har ikki qahramon o‘z eng qimmat narsasidan voz kechgan. Endilikda *joyful exchange* ssenariysi *mutual sacrifice* modeliga aylanadi. Shu paytda resipient ongida mental model yangilanadi: endi asosiy ma’no “romantik sovg‘a”da emas, balki “ruhiy fidoyilik”dadir. Kognitiv zanjir quyidagicha bo‘lishi mumkin: *Initial model: love → gift → happiness;*

*Conflict: loss → irony → reversal;*

---

<sup>37</sup> Rumelhart D.E. Schemata: The building blocks of cognition. In R. J. Spiro, B. C. Bruce & W. F. Brewer (Eds.), *Theoretical Issues in Reading Comprehension*. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1980. – P.33-58.

<sup>38</sup> Brown G., Yule G. *Discourse Analysis*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P.224.

*Revised model:* sacrifice → wisdom → moral coherence. Kogerensiya ushbu ma'no qayta qurilishi natijasida chuqurlashadi. Resipient endi voqeani axloqiy jihatdan izchil, hissiy jihatdan to'liq qabul qiladi.

